O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYAT
NAVBAHOR TUMANI HOKIMINING

# QARORI

210200, Navbahor t., Bobupshoh k 4, tel: (79) 562-15-82, 562-11-84, 562-14-76,
e-mail: navbahor@nv.uz, info@navbahor.uz

2023 - yil 14 - noyabr 156-5-73-Q/23 Navbahor tuman hokimligi

## O'rmon fondi yerlarida o'rmon tuzish, geodeziya va xatlov ishlari natijalari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi” 6, 76-moddalari, O'zbekiston Respublikasining “O'rmon to'g'risida”gi O'RQ-475-sonli qonunining 18-moddasiga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-yanvardagi “O'rmonlarning davlat hisobini va monitoringini yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi nizomga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi “Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida”gi 71-sonli qarorining 6-ilovasiga muvofiq, Navbahor davlat o'rmon ishlab chiqarish korxonasining 2023-yil 06 noyabrdagi 72-sonli xatiga asosan, “Yashilloyiha” loyihalash instituti tomonidan Navbahor davlat o'rmon ishlab chiqarish korxonasida amalga oshirilgan o'rmon tuzish, geodeziya va xatlov ishlari natijalarini tasdiqlash maqsadida, Navbahor tuman adliya bo'limining 2023-yil 14-noyabrdagi 5/561-sonli xati hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi qonunning 6, 25-moddasiga asosan

**QAROR QILAMAN :**

1. Tuman adliya bo'limining 2023-yil 14-noyabrdagi 5/561-sonli hamda Navbahor davlat o'rmon ishlab chiqarish korxonasining 2023-yil 06-noyabrdagi 72-sonli xatlari inobatga olinsin.

2. Navbahor davlat o'rmon ishlab chiqarish korxonasi balansida bo'lgan yer maydonlarida o'rmon tuzish, geodeziya va xatlov ishlarining yakuniy natijalari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Navbahor davlat o'rmon ishlab chiqarish korxona balansida bo'lgan 7706,03 gektar yer maydoni va mavjud o'rmonzorlari hisobotidagi yer toifalari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Navbahor davlat o'rmon ishlab chiqarish korxonasi o'rmon fondi yerlarida noqonuniy yerdan foydalanish ishlarini bartaraf etish hamda kelgusida yo'l qo'ymaslik, o'rmonzorlar va ko'p yillik daraxtzorlarni himoya qilish va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun o'rmon xo'jaligi direktori A.Xojiyev shaxsan javobgar ekanligi qayd etilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari F.Hamroyev zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **А.Ўроқов**

Navbahor tuman hokimining
2023-yil 14-noyabrdagi
156-5-73-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Navbahor davlat o'rmon ishlab chiqarish korxonasi balansida bo'lgan yer maydoni va mavjud o'rmonzorlari hisobotidagi yer toifalari to'g'risida**

**MA'LUMOT**

| № | Шакл-1 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Умумий майдон | Ўрмон ерлари, га | | | | | | | | | | Ўрмонсиз ерлар, га | | | | | | | | | | | Ўрмонсиз ерлар - жами: |
| | | Ўрмон билан қопланган майдонлар | | Туташмаган маданий ўрмон | нихолхонаси ўрмон ва плантация | Ўрмон билан қопланмаган | | | | | Ўрмон ерлари - жами: | ҳайдаладиган ер | пичанзор | яйлов | сувлар ўрни | боғ, узумзор | йўллар, кесишмалар | бинолар ўрни | ботқоқ, шўр ерлар | қумликлар | тақирлар | бошқа ерлар | |
| | | жами | жумладан шу маданий ўрмон | | | сийрак ўрмон | бўлган ёнган, нобут дарахтзор | кесилган | яланглик | қопланмаган ўрмон билан майдон - жами | | | | | | | | | | | | | |
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 |
| Сармиш ўрмон бўлими | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 1 | 7645,00 | | | | | | | | 1427,11 | 1427,11 | 1427,11 | 6,00 | | 6056,97 | 6,05 | 16,07 | 4,00 | 6,50 | | | | 122,70 | 6217,89 |
| Кўчатхона ўрмон бўлими | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 2 | 61,03 | 2,50 | 1,40 | | 15,70 | | | | | | 18,20 | 38,20 | | | | | | | | | | 4,20 | 42,83 |
| Навбаҳор давлат ўрмон хўжалиги бўйича: | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| ЖАМИ | 7706,03 | 2,50 | 1,40 | | 15,70 | | | | 1427,11 | 1427,11 | 1445,31 | 44,20 | | 6056,97 | 6,05 | 16,07 | 4,00 | 6,50 | | | | 126,90 | 6260,72 |